

Origami texnikasida kitob uchun xatcho'p yasash




Origami – yelim va qaychi ishlatmasdan qog'ozdan shakllar yasash san'ati. Oddiy qog'oz varag'idan ajoyib narsalar, masalan, kitob uchun xatcho'p yasash mumkin.



Kitob uchun xatcho'p – kitobda kerakli sahifani yo'qotib qo'ymaslik uchun foydalaniladigan kichik yordamchi. Xatcho'plar har xil: qog'oz, mato va hatto magnitli ham bo'lishi mumkin.



Kitob uchun **Tulkicha** xatcho'pini tayyorlang.



Sizga kerak bo'ladi:



- rangli qog'oz;
- qaychi;
- qalam;
- yelim.

Ish rejasi:

1. Kvadrat shaklidagi qog'oz **oling**.
2. Uni sxemada **ko'rsatilgan ketma-ketlikda buklang**.
3. Xatcho'p tayyor. **Endi uni bezang:** quloqlar, ko'zlar va buruncha yasab, yopishtiring.

